

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15003573>

“NUR BORKI, SOYA BOR” ROMANIDA YOZUVCHI USLUBINING AKS ETISHI

Yuldasheva Moxira Kabulovna

Urganch davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'tkir Hoshimov so'z qo'llash mahorati "Nur borki, soya bor" romani misolida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *uslub, badiiy mahorat, aforizm, frazeologizm, maqol va matallar.*

ANNOTATION

This article examines the skill of using words by Otkir Hoshimov using the example of the novel "There is light, there is shadow".

Keywords: *style, artistic skill, aphorism, phraseology, proverbs and sayings.*

Shunday yozuvchilar bo'ladiki, ular o'z asarlarida o'z uslubini, fitratini, so'zning ham «yuki» bo'lishini mahorat bilan tasvirlaydi. O'sha yozuvchini boshqalardan farqlaydigan jihati ham aynan o'z uslubiga egaligidadir. Chunki uslub yozuvchining o'zigagina xos bo'lgan g'oyaviy-badiiy xususiyatlar majmuyi. Uslub san'atkor asarlarining materiali, mavzui, obrazlar tasviri, xarakter yaratish, sujet va kompozitsiya qurish xususiyatlarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Demak yozuvchi uslubi qanchalik yorqin va o'ziga xos bo'lsagina uning milliy negizi ham shunchalar chuqur va o'sha xalq madaniyati uchun ham ahamiyatli bo'ladi.

«Uslubning shakllanish jarayonida yoki shakllangan uslubning zohir bo'lishida o'z milliy adabiyoti tajribasi, xalq ijodi an'analari, urf-odatlar, til xususiyatlari, mahalliy ruh kabi ko'p jihatlarga e'tibor qilishga to'g'ri keladi»¹ Bu esa o'z navbatida yozuvchidan ulkan mahorat talab etadi.

¹H.Boltaboyev. Nasr va uslub. T., «Fan», 1992, 9-bet.

O'tkir Hoshimov ana shunday mahoratli, so'zi orqali millionlab qalblarga kirib boradigan o'ziga xos yozuvchi. Adib asarlarida o'z qahramonlarini hayotiy, tirik, jonli odam sifatida tasvirlab beradi. Aslida ularning qanday inson ekanligini zohiriy emas, deyarli barcha o'rinlarda botiniy yoritib beradi. Ya'ni yozuvchi asar qahramonlarining ruhiy dunyosini davr bilan uyg'unlikda ochib beradi. O'.Hoshimov insonlar olamining teran kuzatuvchisi sifatida ko'pincha o'z asarlarini iztiroblar olamiga quradi.

«Ma'lumki, iztiroblar ikki xil bo'ladi. Biri o'zgalar tazyiqi orqali yuzaga keladigan iztirob, ikkinchisi hayotdagi salbiy jihatlar, insoniy munosabatlardagi ezgulikka zid holatlar orqali yuzaga keladigan iztiroblar. Birinchisi-jismoniy iztirob, ikkinchisi esa ma'naviy iztirobdir».¹ Bu holatni O'tkir Hoshimovning deyarli barcha asarida ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham yozuvchi asarlarining barchasi kitobxonni jiddiy mushohadaga undab asarning yanada «umriboqiy» bo'lishini ta'minlaydi.

Yozuvchining asarlaridagi xalq ichki hayotining tasviri butun murakkabligi bilan yoritib beriladi. Romanlari kishi shuuriga ta'sir qilib, jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashishga undaydi va ezgulikka chorlaydi. Buni «Nur nur borki, soya bor» romanida yaqqol kuzatishimiz mumkin.

Yozuvchi qahramonlar xarakterini ochib berishda ko'proq folklorizmlarga murojaat qilgan. Ya'ni aforizm, frazeologizm, maqol va matallardan unumli foydalangan. «Qaysiki ijodkor folklor an'analari ichida yashagan, uni o'ziga singdirgan bo'lsa, o'sha ijodkorning asari til jihatidan ham, badiiylik nuqtayi nazaridan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi».²

Asarda ikki qahramon bir-biriga zid holda harakat qiladi. Yoshgina yigit Sherzod uchun hayotda **INSON QADRI** dan muhimroq mezon yo'q. Insoniylik sifatleri Sherzod ruhiyatiga, balki o'sha bolaligida « Otasi kechqurun kerosin lampani o'rta qo'yib, yarim kechagacha kattakon daftardagi hisob-kitoblarni chiqarib, ikki gapining

¹ H.Karimov. Adabiy poertretlar. T., « Yangi nashr», 2017, 214-bet

² M.Jo'rayev, J.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. T., 2017, 10-bet.

birida «Ko‘pchilikning haqi yetim haqidan yomon»,¹ - deya qilgan nasihatlarini orqali muhrlangandir.

Qon-qoniga singib ketgan halollik, insoniyli quyidagi o‘rinlarda namoyon bo‘ladi. O‘zi kasal bo‘la turib, shifoxonada ham «Xuddi restoranga kirib birovning hisobida ovqatlangan odamdek qarzdor bo‘lib qolayotganga o‘xshayveradi». (6-bet) Inson qadri Sherzod uchun naqadar muhim ekanligini shifoxonada bo‘lim mudiriga qarata aytgan quyidagi fikrlari orqali ham anglashimiz mumkin: «Ikki kundan buyon yo‘lakda yotgan odam, nega meni tayyor joyga olishmadi, deb o‘ylamaydimi? Men o‘sha zormanda joyga loyiq emas ekanmanda, deb ko‘ngli cho‘kmaydimi?!». (9-bet)

Jamiyatdagi illatlar uni haqiqatni gapirishga undaydi. «Qadrdon» kasali taxikardiyaning tez-tez azob berishiga ham aslida jamiyatdagi ana shu illatlar sababchi. « Sotsializm davining illatlaridan biri, inson qadri o‘zi yetkazgan, ishlab chiqargan narsasidan past qo‘yilishi edi».² Jamiyatda pulning o‘rni inson qadridan ustun bo‘lganidan Sherzod iztirobga tushib, shifokorga shunday deydi: « Tanasini davolaysiz, ruhini o‘ldirasiz». (9-bet) Har qadamda adolatsizliklarag duch kelar ekan qahramonimizning yuragi madorsizlanib boraveradi. Chunki ruh azoblansa, tana ham bu azobni ko‘tarishga ojiz bo‘lib qoladi. U bilan bir palatada yotgan « Bu dunyoda yo zaring bo‘lsin, yo zo‘ring bo‘lsin» «falsafasi»ga amal qiladigan Sayfi Soqiyevich bilan suhbatlashib, ruhiy iztiroblari yangilanaveradi. (80-bet) Sayfi Soqiyevichning nafaqat o‘zi, balki butun oilasi ham ana shu «falsafa»ga amal qiladi. Sayfi Soqiyevich «Cho‘ntakda pul bo‘lsa- kallaga aql ham kelaveradi» deganlar xilidan. (46-bet) Shuning uchun ham uning o‘g‘li Sirojiddin ham pulning kuchi bilan barcha narsaga osonlik bilan erishgan. Sherzodning Sayfi Soqiyevichga qarata haqoratomuz ohangda aytilgan « Ahmoqning katta-kichigi bo‘lmaydi» gapini ham ta’sir qilmaydi. (79-bet) Sayfi Soqiyevich xarakteridagi illat hech qachon tuzalmaydi. Bu jihatni Sherzodni uchratib qolganida: « Odamga libos, eshakka to‘qim deb shuni aytadi-da Sherzodjon,

¹ O‘.Hoshimov. Nur borki, soya bor. T., «Qaldirg‘och» 2018, 82-bet. Bundan keyingi ko‘chirmalar shu asardan olinib, sahifasi qavs ichida beriladi.

² H.Karimov. Adabiy poertretlar. T., « Yangi nashr», 2017, 294-bet.

Shundoq yigit bolnisaning xalatida ko'rimsiz bo'lib yurgan ekansizda!» degan fikrlarida ham kuzatishimiz mumkin.(88-bet)

Sayfi Soqiyevichning o'g'li Sirojiddin ham vijdotsizlikda otasidan qolishmaydi. Sirojiddin tilidan: «Aziyat chekma, qasos ol!» degan fikrlari orqali hech bir yomonlikdan qaytmaydigan kishi ekanligiga guvoh bo'lamiz. Sirojiddin balki Qilich Valiyevga o'xshagan vijdonli odamga shogird bo'lganida, balki xotini Elmira bilan birgalikda otasini hayotning qing'ir yo'llaridan chiqib, nurli yo'lidan yurishga undagan bo'larmidi? Biroq unday bo'lmadi. Oqibatda tobora soyaga aylanib boraverdi.

Elmira ham hamma qizlar kabi turmushga chiqish oldidan sirli, xayoliy bir baxtni orzu qiladi. «To'ydan keyin tilla taqinchoqlarga bezanib darsga qatnar edi. Lekin «Tez yongan bot soviydi» degan gap rost ekan».(139-bet) Asarda nafaqat ota, balki Sayfi Soqiyevichning xotini va o'g'li Sirojiddin uchun ham inson qadri ahamiyatsiz. Qaynonasining qo'shni xotiga «Ko'rmaganning ko'rgani qursin», «Ot topadi eshak yeydi» deya hasrat qilayotganini Elmira eshitib esankirab qoladi. Bu esankirash ukasini o'g'ri deya gumon qilishganda ichidagi alamlar tashqariga otiladi. «Hali mening ukamni o'g'ri deb gumon qilyapsizlarmi?»-dedi tahdidli pichirlab, Keyingi daqiqada ko'ksini to'ldirgan faryod vulqondek otilib chiqdi. -O'zlaring o'g'risan! O'zlaring haromsan! —u stol ustidagi bir dasta kosani olib yerga uloqtirdi. -O'zlaring iflossan! Hammang, hammang bir go'rsan!»(142-bet) Elmiraaning bu gaplari Sayfi Soqiyevich xonadoniga berilgan eng haqqoniy baho edi. O'zi ustun bilgan pullar evaziga yozilgan dasturxon yomg'ir yog'ishi bilan boshlangan ko'ngilsizliklar bilan nihoyalandi. Momaqaldiroq bilan kelgan kuchli yomg'ir ham go'yo xonadon inqirozi yaqinligiga bir ishoradir.

Yozuvchi folklorizm namunalari bo'lmish matallardan, frazeologizmlardan, ham o'rinli foydalangan. Jumladan, «Tomga chiqaman deb o'raga tushib qoldim» matali, (173-bet) «Xamirdan qil sug'urganday» iboralari qo'llangan.(114 va 170-bet) Asarda qahramonlar ruhiy olamini yoritishda folklorizmlardan mahorat bilan foydalanilgan. Qolaversa, o'rinli qo'llanilgan aforizmlar ham asar badiyatini yuqori o'rinda bo'lishiga xizmat qilgan. Nafaqat xalq tomonidan yaratilgan aforizmlar, balki yozuvchi qalami bilan yaralgan aforizmlar ham asarga ko'rk bag'ishlagan.